

# INDIVIDUAL TA'LIM TRAYEKTORIYASI - TALABANING TA'LIM SOHASIDAGI SHAXSIY IMKONIYATLARINI AMALGA OSHIRISHNING INDIVIDUAL YO'NALISHI

**Mustafoyeva Munajat Oltinbekovna**

*Tayanch doktorant, O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali*

**Annotatsiya:** *Individual ta'lim trayektoriyasini loyihalashda tashkiliy jihatlaridan o'zaro hamkorlik muhim hisoblanadi. Individual ta'lim trayektoriyasida o'qituvchi har bir talabani ta'lim faoliyati, qobiliyati, imkoniyatlaridan kelib chiqib faoliyatni muvofiqlashtirish, tashkil etish nazarda tutiladi.*

**Kalit so'zlar:** *individual ta'lim trayektoriyasi, hamkorlik, o'quv faoliyat.*

Individual ta'lim trayektoriyasini loyihalashda asosiy yo'nalishlardan biri sifatida uning tashkiliy jihatlarini hisoblanadi. Bu talaba, o'qituvchi va ota-ona hamkorligidir. Individual ta'lim trayektoriyasida o'qituvchi har bir talabani ta'lim faoliyati, qobiliyati, imkoniyatlaridan kelib chiqib faoliyatni muvofiqlashtirish, tashkil etish nazarda tutiladi. Shu bilan birga ota-onalar bilan hamkorlikda o'quv faoliyatini davom ettirish mumkin. Ta'lim va tarbiya bir-biri bilan ajralmas jarayondir. Talaba o'zini inson sifatida namoyon qilishi uchun kerakli shart-sharoitlarni yaratish kerak va bu albatta ta'lim beruvchiga bog'liq bo'ladi. Asosiy maqsad har bir o'qituvchi uchun talabani mustaqil fikrlashi va javobgarlikni his qila olishidir. Hech shubha yo'qki, har bir dars talabani shakllantirishga qaratilgan bo'lishi, nafaqat reproduktiv, balki ijodiy fikrlash, tashakkur tuyg'usini uyg'otish shaxs rivojlanishiga bir omil bo'ladi. O'qituvchidan ikkita shart talab qilinadi:

- Har bir talabani rivojlanishi qobiliyatiga qarab tegishli munosabatda bo'lish;
- Har bir talabani kuchli va zaif tomonlari, muammolari, moyilliklari va manfaatlarini o'rganishga harakat qilish[1].

Bu albatta bitta darsga o'qituvchi uchun qiyinlik qilishi mumkin. Talaba dunyosida o'qituvchi yaxshi imkoniyatlarga ega individual shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Har bir darsda iloji bo'lsa har bir talabaga yondashishi uchun turli xil imkoniyatlar mavjud:

- Har bir darsda har bir talaba uchun yetarli motivatsiyani ko'rib chiqsa, har bir Talabani qamrab olish mumkin;

- Har bir dars jarayonida darsga ishtirok etgan har bir talaba bilan suhbatlashish mumkin. Bunda eng faol talaba ham eng "kuchsiz" talaba ham chetda qolmasligi kerak;

- Mustaqil ish vaqtida talabalar ishini olib borib topshirganda (tabiiyki talaba xato qilishi mumkin) har bir talaba bilan to'g'ridan to'g'ri do'stona aloqa qilishiga harakat qilishi mumkin. Bunda unga ko'rsatmalar, maslahat berishi yoki savol ko'rinishida yo'nalish berish mumkin.

Xususiyatlardan to'laligicha foydalanishning har doim ham imkoni yoqdir.

Tajribali pedagog so'z, qarash, yuz ifodalari orqali talaba topshiriqni tushundimi, muammoni tushundimi yoki tushinishni istamadimi, muammo pasaydimi, masala yechimini topdimi bularni aniqlashi mumkin. Birgina qo'pol munosabat bilan o'zidan itarishi mumkin. Biroz rag'batlantirish orqali muammo yechimini yengillashtirish ham mumkin. Eng asosiysi bilimlarni baholashda yaxshi izoh va adolat talab etiladi. Talaba tomonidan adolatli va tegishli bilim sifatida qabul qilinsa, shaxs sifatida rivojlanishiga ham bilimni yanada oshirishga intilishini ham yuksaltiradi. Talabani qobiliyatiga, uning imkoniyatlarini hisobga olgan holda rag'batlantirib borish zarur. Ayniqsa bo'lajak fizika o'qituvchisi tabiatdagi jarayon va hodisalarning o'zaro bog'liqligini, shu bilan birga talabalar faolligini saqlash uchun ham pedagogic ham psixologik metodlarning eng faol usullarini qo'llay olish talab etiladi[2]. Shu qatorda dars jarayonida diqqatni jamlash uchun xizmat qiluvchi vositalardan foydalanish, talabani ong ostiga ta'sir qiluvchi yondashuvlar orqali masala mohiyatini tushuntirish, belgilangan maqsadga erishishning samarali usulidir. Amaliyot vaqtida "kuchli" va "kuchsiz" talabani hamkorlikda ishlashga undash kerak. Qobiliyatli shogird bilan dars davomida qo'shimcha ishlashga imkon beradi hamda qolganlarni dam olishiga yo'l qo'ymaydi. Vazifalarni farqlash, birinchi navbatda materialni o'zlashtirish darajasidagi farqlarni hisobga olish zarur.

Darsning vaqtincha farqlanishi va talabalarga individual yondashish, masalan, sherik yoki guruh bilan birgalikda hamkorlikning maxsus shakllarini qo'llash orqali erishiladi.

“Induvidual ta'lim trayektoriyasi” tushunchasi va shaxsiy yo'naltirilgan ta'lim pedagogikasi orqali faol muhokama qilinadi. Buning aniq va sodda shakliga tayanamiz. Adabiyotlardan ma'lumki “Induvidual ta'lim trayektoriyasi – har bir talabaning ta'lim sohasidagi shaxsiy imkoniyatlarini amalga oshirishning individual yo'nalishidir”. Ta'rifga asosan nafaqat ob'yektlar va bilim sohasi, balki talabaning shaxsiy imkoniyatlari bilan aniqlanadi.

Induvidual o'quv dasturini ishlab chiqishda quyidagilarga etibor qaratish zarur:

- Maqsadli va moslashuvchan bo'lishi;
- Ijtimoiy buyurtmani amalga oshirish uchun zarur bo'lgan talablarga erishish va zarur bo'lgan talablar darajasiga erishish imkoniyatini ta'minlash;
- Talabaning ta'lim va undan tashqari faoliyatini integratsiyalashuviga ko'maklashish (loyiha, ilmiy tadqiqot, o'quv va ijodiy);
- Kasbiy ta'lim integratsiyasini targ'ib qilish;
- Talabaning individual ehtiyojlari va xususiyatlari bilan tanishadigan texnologiyalarni aks ettirish;
- Talabani rivojlantirish uchun resurslarning eng yuqori darajasida jalb qilinishini ta'minlash;
- O'quv jarayonini tashkil etish to'g'risidagi talabalarning to'liq ma'lumotini berish.

Induvidual o'quv dasturi normativ-huquqiy, axborot motivatsion, tashkiliy, tashkiliy funksiyani va o'zini o'zi belgilash funksiyasini bajaradi. Induvidual o'quv dasturining dizayni talabalar va o'qituvlarning o'zaro ta'siri asosida olib boriladi va yaqin hamkorlik yaratishni o'z ichiga oladi. Talabalarning talabi o'zgarmoqda, shu bilan o'quv jarayonini tashkil etishning tashqi sharoitlari o'zgaradi, bu yangi ta'lim resurslari paydo bo'lishiga olib keladi.

Xulosa o'rnida induvidual ta'lim trayektoriyasi mustaqil va umumiy muommolar va ixtisoslashgan vazifalarni bajarish zarurligini bilgan holda amalga oshirilmoqda. Talabaning shaxsiy xususiyatlari samarali tadbirlar orqali o'rganiladi. Har bir talabani noyob shaxs sifatida ko'rish va uni rivojlantirishda tajribali pedagog barchasini turli xil mashq va topshiriqlar orqali amalga oshiriladi. Shu bilan birga individual trayektiriyaga ko'ra jarayonni tashkil etish barcha ishtirokchilarning o'zaro aloqada bo'lishlarini talab qiladi. O'quv dasturining bir qismi sifatida talaba o'rganishi, o'z bilimlariga erishish uchun shaxsiy qadamlarini qanday tashlash kerakligini bilib olishi zarur hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Методические рекомендации по проектированию индивидуального образовательного маршрута Санкт – Петербург 2019 Государственное бюджетное общеобразовательное учреждение

2. Mustafoyeva Munajat Oltinbekovna. (2022). PSYCHOLOGICAL APPROACH TO TEACHING A FUTURE PHYSICS TEACHER. Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences, 1(5), 86–92. Retrieved from <http://ijournal.uz/index.php/jartes/article/view/63>

#### **TALABALARNI INDIVIDUAL TA'LIM TRAYEKTORIYASI ORQALI O'QITISHNING SAMARADORLIGI**

**Mustafoyeva Munajat Oltinbekovna**

*Tayanch doktorant, O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada induvidual ta'lim trayektoriyasi, moslashtirilgan o'quv dasturi, individual ta'lim trayektoriyasini amalga oshirish shartlari va sohalari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** induvidual ta'lim trayektoriyasi, moslashtirilgan o'quv dasturi.